The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopolov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукахоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	



“OILA VA XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH JAMG‘ARMASI” FAOLIYATI



Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

ORCID: 0009-0007-7632-3868

Annotatsiya: Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekistonda yashayotgan har bir oila farovon turmush kechirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, oila bekasi bo'lmish har bir ayol uchun yaratilgan shart-sharoitlar chin ma'noda baxtiyor, chiroyli va farovon hayotning asosiy poydevori bo'lib xizmat qilayotgani hammamizga ayon. Zero, xotin-qizlar har doim har qachongidan ham kuchliroq hurmat va ehtiromda. Ayniqsa, ular davlatimizning Konstitutsiyasi va qonunlari himoyasida bo'lib, barcha huquq va erkinliklari qonunlar bilan kafolatlanmoqda. Mazkur maqolada yuqorida keltirilgan masalalarga oid tuzilgan jamg'arma maqsadi va uning jamiyat uchun muhim o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat, budjet, maqsadli jamg'arma, g'aznachilik tizimi, xarajat.

Abstract: As you know, today is the time when every family living in Uzbekistan has all the opportunities for a prosperous life. We are all witnesses to the fact that the conditions created for every woman, especially as the head of the family, serve as the basis for a truly happy, beautiful and prosperous life. After all, women have always enjoyed more respect and honor than ever. All rights and freedoms are protected by law, especially under the protection of the Constitution and laws of our country. This article highlights the purpose of the foundation created to address the above issues and its important role in society.

Key words: State, budget, trust fund, treasury system, expenses.

Аннотация: Как вы знаете, сегодня такое время, когда каждая семья, проживающая в Узбекистане, имеет все возможности для благополучной жизни. Мы все являемся свидетелями того, что условия, созданные для каждой женщины, особенно как главы семьи, служат основой по-настоящему счастливой, красивой и благополучной жизни. В конце концов, женщины всегда пользовались большим уважением и почетом, чем когда-либо. Все права и свободы охраняются законом, особенно под защитой Конституции и законов нашей страны. В данной статье освещается цель фонда, созданного для решения вышеуказанных вопросов, и его важная роль в обществе.

Ключевые слова: Государство, бюджет, трастовый фонд, казначейская система, расходы.

KIRISH

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global kun tartibi doirasidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 1-martdagi “Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi PF-81-son'li Farmoni bilan Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etildi.

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-6937332>



Mazkur tashkilotning asosiy maqsadi xotin-qizlar va oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish hisoblanadi.

Jamg'armaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga, nogiron farzandini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang'ich badalini to'lab berish;
- Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish;
- Xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish;
- Xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor L.A. Drobozinaning fikricha, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar jamiyatdagi ayrim xarajatlarni moliyalashtirish va kompleks ravishda tezkor mustaqillik asosida mablag'larni sarflash, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish usulidir [2].

Professor A. Vahobovning fikricha, "Budjetdan tashqari jamg'armalar avval maxsus jamg'armalar va o'ziga xos hisobvaraqlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus jamg'armalarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi. Budjetdan tashqari jamg'armalar maqsadiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy, boshqaruv darajasiga ko'ra markaziy va mintaqaviy jamg'armalarga bo'linadi" [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda jamg'armaning tashkil etilish huquqiy asoslari va xarajatlar hisoboti usuli qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda mamlakatimizda ayol-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasb-hunar o'rgatish, bandligini ta'minlash, ularning jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarida o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifaga aylangan.

Ayniqsa, nozik xilqat vakillarining davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani e'tiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son²li qarori bu boradagi ezgu sa'y-harakatlarni yanada rivojlantirish, ta'bir joiz bo'lsa, yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'ldi [4].

Mazkur huquqiy hujjatda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning ishtirokini va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishi, muayyan kasbiy ko'nikmalarni egallashi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyoj va qiziqishlarini tizimli o'rganish hamda ularga zarur yechim topish borasidagi ishlarni jadallashtirishga doir qator muhim vazifalar belgilangan.

Jumladan, qarorga binoan Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etiladi. Shu o'rinda ko'pchilikda ushbu jamoatchilik tuzilmasini tashkil etishga qanday ehtiyoj bor edi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida, oxirgi yillarda davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni hamda mavqeini yanada mustahkamlash mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ta'kidlagan edi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan ayollarning uy-joy olishi uchun boshlang'ich badallarni to'lab berish tizimi yo'lga qo'yildi. Ushbu tizim orqali birgina o'tgan yili Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan 1 246 nafar ayol uy-joy sotib olishi uchun 21 milliard 746 million so'm miqdorida boshlang'ich badal pullari to'lab berildi.

"Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror orqali bu boradagi ishlarni jadallashtirish va yangi bosqichga

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>



olib chiqish, ehtiyojmand ayollarning ijtimoiy himoyasini kengaytirish uchun mazkur jamg'arma Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etildi.

Jamg'arma tomonidan og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, nogiron farzandini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, bolalarini to'liqsiz oilada ulg'aytirayotgan va turarjoyga muhtoj xotin-qizlar uchun uy-joylarning boshlang'ich badalini to'lab berish, opa-singillarimiz salomatligini mustahkamlash, ularni sportga keng jalb etish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlar moliyalashtiriladi. Buning uchun davlat budjetidan har yili 300 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi. Shu bilan birga, jamg'armaning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirish hisobidan olingan daromadlar, homiylik xayriyalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan jalb qilingan mablag'lar ham ushbu ezgu maqsadlarga yo'naltiriladi.

Mazkur qarorga muvofiq, bu yil "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan xotin-qizlarning ipoteka kreditlari uchun boshlang'ich badallarini to'lab berish va ijtimoiy uy-joy sotib olish uchun mahalliy budjetlarga 10 milliard so'mdan, otasidan ayrilgan, yolg'iz onasi qaramog'ida bo'lgan, voyaga yetgan va uy-joyga muhtoj qizlarni uy-joy bilan ta'minlash uchun esa 5 milliard so'mdan mablag' ajratilishi ushbu yo'nalishdagi ishlarning yangi bosqichga chiqqanining amaliy tasdig'idir.

Bugungi kunda aholi salomatligini mustahkamlash, ayniqsa ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlarning sog'lig'ini muhofaza qilish va ularga zarur amaliy yordam ko'rsatish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Prezidentimizning mazkur qarori ushbu yo'nalishdagi asosiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, sog'lig'i uchun maxsus jarrohlik amaliyotlariga muhtoj bo'lgan va "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" hamda "Temir daftar"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarni davolash maqsadida Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga 30 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Shuningdek, mahalliy hokimliklar tomonidan "Ayollar daftari"da ro'yxatga olingan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan jamg'arma hisobidan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi mavjud va o'zgalarning parvarishiga muhtoj xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish uchun 80 milliard so'm, noturarjoylarda yashayotgan xotin-qizlar uchun esa turarjoy ijarasi kompensatsiyasi sifatida 11 milliard so'm ajratilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor bu qadar katta moliyaviy resurslar ehtiyojmand oilalarda yashovchi ayollar va yoshlarga ijtimoiy himoya va tibbiy yordam ko'rsatish uchun yo'naltirilmoqda. Bu esa mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilayotganining yorqin dalilidir.

Bundan tashqari, 2024-yilda barcha hududlarda xotin-qizlar faoliyat yuritadigan hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati tajriba tariqasida yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Hududlarda zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko'rsatish maqsadida bittadan namunaviy markaz tashkil etiladi hamda ularning ish faoliyatini boshlash uchun 10 milliard so'm va mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan zarur mablag'lar ajratilishi nazarda tutilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli ro'yxat asosida qabul qilish va boquvchisini yo'qotgan ayollarga bolasini maktabgacha ta'lim tashkilotlari, shu jumladan, oilaviy bog'chalarga berish xarajatlarini budjetdan qoplash tizimi joriy etiladi [5].

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning muammolarini hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 557-son³li qarorida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, xotin-qizlar muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, muammolarni hal etishda inson omilini kamaytirish hamda xotin-qizlar murojaatlarini ko'rib chiqish natijadorligini oshirish bo'yicha yo'llar belgilangan. Unda ko'rsatilishicha:

1. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining quyidagi takliflariga rozilik berildi:
 - 2024-yil oktabr oyidan boshlab "Xotin-qizlar.uz" platformasi doirasida Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va tizimli hal etish modulini ishga tushirish;

- Muammolarni o'rganish moduli orqali aniqlangan muammolarni "mahalla – tuman – viloyat – respublika" darajasida hal etishni ta'minlash.

2. Belgilab qo'yildiki, "Xotin-qizlar.uz" platformasini takomillashtirish va doimiy texnik qo'llab-quvvatlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining buyurtmanomasi asosida Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari doirasida moliyalashtiriladi [6].

2024-yilda 889 567 nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Bunda:

- 284 041 nafar xotin-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitildi, xususan, 154 972 nafari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga, 129 069 nafari tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savodxonlikka o'qitildi;

3 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7098016>



- 257 171 nafari ishga joylashtirildi, 102 544 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida 5 ta tuman tajribasi respublika bo'ylab ommalashtirildi.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan xotin-qizlarning kasbiy ko'nikmalar olishlari va munosib ish topishlariga ko'maklashish, tadbirkorliklarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Respublika va hududiy Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilinmoqda.

Jamg'arma tomonidan ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarning kasbiy ko'nikmalar olishlari, mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarga va tadbirkorlikka o'qitish uchun Respublika va hududiy Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari nodavlat notijorat tashkilotlariga 2024-yilda 17 milliard 668 million so'm mablag' ajratildi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

MMamlakatimiz taraqqiyoti hamda oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar salmoqli o'rin va nufuzga ega. Aholining qariyb 50 foizini tashkil etuvchi ayollar bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida, jumladan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarida faol va samarali ishtirok etmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning turli soha va tarmoqlardagi qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oila institutini mustahkamlash ham bu boradagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Biroq, amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, ushbu sohada xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan tizimli va maqsadli ishlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish jarayonida ayrim tizimli muammo va kamchiliklar hali ham saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini rivojlantirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida qo'mitaning ustuvor yo'nalishlari qayta belgilandi va uning hududiy bo'linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va "Tadbirkor ayol" uyushmasining oila va xotin-qizlar masalalaridagi faolligi inobatga olinib, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi tashabbus ma'qullandi. Mazkur jamg'armaning asosiy vazifasi og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish hamda xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shu bilan birga, 2025-yilda O'zbekistonda xotin-qizlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha ravishda 200 million AQSh dollari yo'naltirilishi belgilangan. Prezident tomonidan imzolangan mazkur qaror xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va oila muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilishi kutilmoqda [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 1-martdagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6937332>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>.
3. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning muammolarini hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 557-sonli qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7098016>
4. Дробозина Л.А. Финансы: Учебное пособие.-Москва: ЮНИТИ. 2005г.-20 стр.
5. Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar.TSharq. 2003. 117 b.
6. <https://familyfund.uz/uz/documents/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>